

KIMYO FANLARINI O’QITISHDA MUAMMOLI TA’LIMNING AXAMIYATI

Nishonov Mirkozimjon

*Farg’ona davlat universiteti kimyo kafedrası professori, texnika fanlari nomzodi*

Ozodaxon O’rinova

*Farg’ona davlat universiteti kimyo kafedrası katta o’qituvchisi, pedagogika fanlari bo’yicha falsafa  
doktori (PhD)*

**Annotasiya:** *Ushbu maqolada talabalar bilimni chuqurlashtirish va kengaytirishda yangi ta’lim texnologiyalarining axamiyati va keys – stadiidan foydalanish yoritilgan.*

**Kalit so’zlar:** *talaba, Keys-stadi, kimyoviy jarayon, modda tuzilishi, modda tarkibi, metod, shakl, vosita.*

Ta’lim-tarbiyada maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish, ham o’qituvchi, ham talaba-o’quvchining hamkorlikdagi faoliyati hamda ular qo’ygan maqsad, tanlangan mazmun, metod, shakl, vositaga, ya’ni texnologiyaga bog’liq.

O’qituvchi va talabaning maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda o’qituvchi talaba-o’quvchilarning bilim saviyasi, guruh tavsifi, sharoitiga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishish uchun kompyuter bilan ishlash lozimdir, balkim film, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo’lar, bular o’qituvchi va talaba-o’quvchilarga bog’liq.

Shu bilan bir qatorda o’qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda o’qituvchi o’quv predmetining o’ziga xos tomonini, joy va sharoitni, eng asosiysi, o’quvchi-talabaning imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda, o’quvchi-talabani ta’limning markaziga olib chiqish kerak.

Shu maqsadda, ta’lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzidagi yechimi variantlarini izlashga yo’naltiradigan aniq real yoki sun’iy ravishda yaratilgan muammoli-vaziyatli tahlil yetilishiga asoslanadigan o’qitish usulidir keys-stadi haqida fikr yritamiz.

Keys-stadi - o’qitish, axborotlar, kommunikasiya va boshqaruvning qo’yilgan ta’lim maqsadini amalga oshirish va keys-stadida bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida voqiya qilinadigan o’quv natijalariga kafolatli yetishishni vositali tarzda ta’minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo’lgan o’qitish texnologiyasidir.



Keys. Siz moddalarning xossalari mavzusi bo'yicha tushuncha bilan tanishdingiz. Moddalarning kimyoviy, fizik va biologik xossalari avvalom bor ularning kimyoviy tarkibi hamda tuzilishiga bogliq bog'liq.

Savollar:

1. Osh tuzining tuzilishi va uni tashkil qilgan kimyoviy elementlar hamda ularning oddiy, shuningdek murakkab birikmalari qanday xossalarga egaligi haqidagi fikrlarni umumlashtiring.

2. Ushbu masalani qanday o'rganish lozimligi haqida tavsiya ishlab chiqing.

3. Nima uchun osh tuzi inson organizmi uchun foydali va istemol qilinadi, ammo xlor gazi va natriy metali iste'mol uchun yaroqsiz? Siz bu haqida nima deya olasiz?

Tinglovchilarga tavsiya etiladigan manbalar:

Noorganik kimyo, elementlar kimyosiga doir adabiyotlar.

Tinglovchilar uchun ko'rsatmalar:

1. Keys mohiyatini yetarlicha anglab oling.

2. Muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang.

3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajrating.

4. Ana shu omillar asosida yechimni asoslashga harakat qiling.

5. O'z fikringizni bayon eting.

Keysni yechish jarayoni:

1. Tinglovchilar keys mohiyatini u bilan tanishish orqali kichik guruhda muhokama qiladi.

2. Tinglovchi kichik guruh a'zolari bilan hamkorlikda muammoni hal etishga zamin tayyorlaydigan omillarni aniqlaydi.

3. Muammoni hal etishga imkon beradigan omillardan eng muhimlari ajratib olinadi.

O'qituvchining yechimi. (qisqacha)

Osh tuzi noorganik birikma bo'lib, uning tarkibiga natriy va xlor elementlari kiradi. Bu birikmaning xosil bo'lishi jarayonida natriy atomidan xlor atomiga bir dona elektronning o'tishi sodir bo'ladi. Natijada natriy va xlor oddiy moddalarinig barcha xossalari inkor qilinadi. Shu tufayli ham murakkab birikma holidagi natriy va xlorid ionlarini istemol qilish mumkin. Oddiy modda xolidagi natriy- qattiq xolatdagi metall, xlor - gaz modda hisoblanadi va inson hayotiga xavf tug'diradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Keys stadi, interfaol va muammoli metodlar bugungi kunda talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirish, o'qishga qiziqish va motivlarni hosil qilish, ularni haqiqiy kasb egalari sifatida yetishtirishga kuchli ta'sir ko'rsatadigan metodlar sifatida talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish imkoniyatlarini yaratadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.Nishonov, Holiqova N.R. Didactic analysis of the process of organizing and conducting professional independent education in the credit-module system. Science and innovation, 2023 tom 2 B 8, pp 175-177 .

2. M. Nishonov, N.R.Holiqova. The importance of using educational resources in independent learning of chemistry. Scientific newsletter of Namangan State University. Namangan 2022. No. 3, pp. 80-83.

3. M. Yunusov, M.Nishonov. Studying the Efficiency of Teaching the Chemical Technology Course Using Information Technologies. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, (2022). 13,33–38.

4. М.Нишонов, Ш.Мамажонов, В.Хўжаев – Кимё ўқитиш методикаси. Тошкент: Ўқитувчи, 2002.

5. М.Ф. Нишанов, А.А. Хайдаров, Д.М. Мирзаев - Значение изучения среды раствора при профессиональной подготовке студентов направления «Пищевая технология». Журнал Universum: технические науки, 2020 Номер 10-2 (79) Страницы 92-94

6. M. Nishonov, S Mamajonov, D Tojimatov -Methodological significance of studying the migration of microelements in water and soils.

American Journal of Applied Science and Technology, 2022 Том2 Номер07 Страницы10-14

7. М.Нишонов, С.Тешабоев. Мактабда кимёдан амалий ишлар. - Т.: Ўқитувчи, 1992, 134 бет

8. M Nishonov, Sh.A. Mamajonov, D Tojimatov -Methodological Significance of Studying Chemical Pollution of the Environment by Microelements. Eurasian Research Bulletin, 2022 Том10. Страницы 55-58.

9. M. Nishonov, Sh.A. Mamajonov . Improving the Structure and Content of the Course" Methods of Teaching Chemistry" in Higher Education. Pedagogical Education, 2004.

10. M.Nishonov, T.Amirova. Integrative description of the science of chemistry teaching methodology with didactic analysis.- Science and innovation, 2023 том 2 номер б6 страницы 245-248

11. M.Nishonov. Methodological significance of studying the transfer of dissolved microelements through soil solution.- Science and innovation, 2023 том 2 номер special issue 6. страницы 64-68

12. Карпенко М. П. Перспективы развития системы высшего образования на основе «Концепции вуза– 2030» / М. П. Карпенко // Вестник РЕАН. 2005. Т. 5. №3. С. 27–34

